

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN JISMONIY TARBIYA FANIDAN MALAKA SINОВI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi jismoniy tarbiya fanidan o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash, talabgorlarning jismoniy tarbiya fani bo‘yicha nazariy bilimlari, **amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini** kompleks baholash.

II. Me‘yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Jismoniy tarbiya

1. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyot
2. Gimnastika turlari va qoidalari
3. Harakatli o‘yinlar
4. Yengil atletika turlari va qoidalari
5. Kurash turlari va qoidalari
6. Suzish turlari va qoidalari
7. Sport o‘yinlari turlari va o‘yin qoidalari
8. Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o‘yinlari
9. Sport inshootlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
O'ZBEK TILI				
Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyot	Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti bo'yicha bilimlarni egallash	Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotida mashg'ulotlarni rejalashtirish, mashqlarni to'g'ri metodik tartibda tashkil etish, harakat texnikasini rivojlantirish va shug'ullanuvchilarning motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi hamda sog'ligini hisobga olib, nazariyani amaliyotga bog'laydi va samarali dars o'tishda asos qila oladi.	12.5 %	5
Gimnastika turlari va qoidalari	Gimnastika turlari va qoidalari bo'yicha bilimlarni egallash	Gimnastikaning asosiy turlarini bilish va farqlash, mashqlarni metodik jihatdan qo'llash, texnika va qoidalardagi xatolarni tahlil qilish, yangi mashqlar kombinatsiyalarini yaratish va ularning samaradorligini baholash	12.5%	5
Harakatli o'yinlar	Harakatli o'yinlar bo'yicha bilimlarni egallash	Harakatli o'yinlar va ularni turlarini bilish, tavsiflash, o'yinlarning yosh va tayyorgarlik darajasiga mosligini tushunish, o'yinlarni dars jarayonida qo'llash, jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o'yinlar rolini tahlil qilish	12.5%	5
Yengil atletika turlari va qoidalari	Yengil atletika turlari va qoidalari bo'yicha bilimlarni egallash	Yengil atletika turlarini bilish va farqlash, musobaqa qoidalariga muvofiq qo'llash, texnik va taktika bo'yicha xatolarni tahlil qilish	12.5%	5
Kurash turlari va qoidalari	Kurash turlari va qoidalari bo'yicha bilimlarni egallash	Kurash turlari va qoidalarini bilish, texnik va taktik usullarni tushunish, amaliy mashg'ulotlarda qo'llash, raqib harakatlarini tahlil qilish	5 %	2
Suzish turlari va qoidalari	Suzish turlari va qoidalari bo'yicha bilimlarni egallash	Suzish turlarini bilish va farqlash, harakat texnikasini tushunish, texnika va natijalarni tahlil qilish	5 %	2
Sport o'yinlari turlari va o'yin	Sport o'yinlari turlari va qoidalari	Sport o'yinlari turlarini bilish va farqlash, texnik va taktik jihatlarini	15%	6

qoidalar	bo'yicha bilimlarni egallash	tushunish, o'yin davomida samarali qo'llash, jamoa strategiyasini tahlil qilish, yangi o'yin taktikasi yoki strategiyasini ishlab chiqish va natijalarni baholash		
Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o'yinlari	Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o'yinlari bo'yicha bilimlarni egallash	Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o'yinlari tarixini bilish, sport rivojiga ta'sirini tushunish, dars yoki tadbir jarayonida qo'llash; milliy terma jamoalar ishtirokini tahlil qilish; rivojlantirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholash.	12.5%	5
Sport inshootlari	Sport inshootlari bo'yicha bilimlarni egallash	Sport inshootlari turlarini bilish va farqlash; foydalanish qoidalarini tushunish; amaliy mashg'ulotlarda qo'llash; mavjud sharoitni tahlil qilish; yangi loyihalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash.	12.5%	5
Jami				40

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	25%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	50%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan matndagi fakt, dalil va me'yoriy holatlarni taqqoslash, tahlil qilish, matn mazmuniga muvofiq taxmin qilish, matn xronologiyasini aniqlash, xulosa(lar) chiqara olish	25%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi. Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti" R.S.Salomov, "ITA press" 2014
2. "Sport inshootlari" A.A.Tolametov, "Umid design" 2021
3. "Sport inshootlari" moduli bo'yicha (Sport turlari bo'yicha trener o'qituvchilar uchun) O.Xolxodjaev "Toshkent" 2021
4. "Jismoniy tarbiya va Olimpiya harakati tarixi" (L.A.Djalilova) "Voriz - nashriyoti" 2017.
5. "Sport va Harakatli o'yinlar" (T.S.Usmanxodjayev), "Cho'lpon" 2018.
6. "Maktabda jismoniy tarbiya" (N.X.Soatov) "Exstremum Press" 2015.
7. "Jismoniy tarbiya va sport" (I.A.Tursunaliyev) "Umid design" 2021.
8. "Sport o'yinlari" (I.A.Tursunaliyev) "Umid design" 2021.

9. <https://www.olympic.uz>

10. “Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi” Toshkent “Barkamol fayz media”, 2017 yil, M.J.Abdullayev, M.S.Olimov, N.T.To‘xtaboyev

11. “Shaxmat - sehrli olam” Rustam Qosimjonov

12. “Jismoniy tarbiya va sport” Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”-2022y D.Sh. Dushabayev

13. “Milliy va harakatli o‘yinlar” T.S.Usmanxodjayev, Sh.X. Isroilov, A.A. Pulatov, Sh.A. Pulatov Toshkent “Iqtisod-moliya”-2015

14. “Gimnastika” M .N . Umarov, A.K. Eshtayev, D .R. Ishtayev, G.M . Xasanova - Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Tashkent — 2018

15. “Jismoniy tarbiya” darslik T.S.Usmonxadjayev, B.J.Yusupov, J.A.Akromov “O‘qituvchi” 2009

16. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari darslik T.S.Usmonxadjayev, M.M.Rahimov, R.Qudratov, X.A.Meliyev “O‘qituvchi” 2005